AMIR TEMURNING SIYOSIY KURASH MAYDONIGA KIRIB KELISHI

Sattorov Xurshidjon Abduvali o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya.
Ушбу мақолада Амир Темурнинг сиёсий майдонга кириб келиши, бу жараённинг тарихий шарт-шароитлари ҳамда унинг сиёсий ва ҳарбий фаолияти таҳлил қилинади. XIV асрнинг иккинчи ярмида Мовароуннаҳрда юзага келган сиёсий беқарорлик шароитида Темур дипломатик маҳорат, ҳарбий иқтидор ва стратегик қарорлари орқали кучли сиёсий етакчи сифатида шаклланди. Мақолада унинг маҳаллий амирлар билан иттифоқлари, рақиблари билан кураши, мустақил сиёсий кучга айланиши ҳамда Мовароуннаҳрни марказлашган давлат сифатида бирлаштиришдаги ўрни тарихий манбалар асосида ёритилади.

Kalit so‘zlar*: Amir Temur, siyosiy kurash, Movarounnahr, XIV asr, Chig‘atoy ulusi, harbiy iqtidor, markazlashgan davlat, tarixiy sharoit, siyosiy raqobat, davlat barpo etish.*

KIRISH

Sohibqiron Amir Temur hijriy 736-yil 25-shabonida, milodiy 1336-yil 9-aprelda tavvallud topgan. Uning tug‘ilgan joyi hozirgi SHahrisabz yaqinidagi Yakkabog‘ tumani Xujailg‘or qishlog‘iga tug‘ri keladi. Amir Temurning otasi Amir Tarag‘ay bulib Chig‘atoy Ulusining obruli kishilaridan biri bulganini Hofizi Abru takidlab o‘tgan. Amir Temurning onasi Takina xotin bulib Buxoro beklaridan birining qizi edi. Temurning otasi Amir Tarag‘ay Temur 7 yishga tulgach madrasaga uqishga berganligi haqida manbalarda keltirilgan. Temur yoshligidan zukkova zirak bola ekanligiva tez orada xat savodni mukammal darajada uzlashtirganini SHarofiddin Ali Yazdiy zafarnoma asarida takidlab o‘tgan. U yoshligidan ot choptirish kamondan uq otish ni yaxshi uzlashtirib, harbiy uyinlarga qiziiqqanligi haqida manbalatda keltirilgan. Temur ov jarayonlariga ham yuksak darajada qiziqib hatto kecayu kunduz kub vaxti ov jarayonlarida utgan. Ushbu malimotlarga tyanib aytganda Amir Temur manan va jismonan yetuk darajada chiniqib voyaga yetganligini aytish mumkin. Amirning birinchi ustozi SHayx SHamsiddin Kulol bulib, Amir Tarag‘ay qo‘lida xizmat qilgan.

Temur dastlab SHayx SHamsiddin Kulol huzuriga juldir choponida kelgani, bu vaqtda Shamsiddin Kulol o‘z davrasida ilm peshvolari bilan fikr yuritib o‘tirar edi, Temur bu jarayon tugashini sabr bilan kutti. Bu jarayon tugagach shayx Temurning oldiga kelgani va Temur tiz cho‘kib peshonasini uning oyog‘iga quyib, qulini o‘pgach shayx ilm peshvolari bilan birga Temur haqqiga duo uqiganligini SHarofiddin Ali yazdi Zafarnoma asarida takidlab utgan. Ushbu duo keyinchalik Temurning jahonda buyuk nom qozonishiga sabab bulgan deyish mumkin. Hofizi abruning yozishicha Amir Tarag‘ayning to‘rt o‘g‘li va ikki qizi bo‘lgan. o‘g‘illarining ismlari Amir Temur, Suyurg‘atmish, Olamshayx, Jo‘gino‘yon bulgan. Qizlari esa Qutlug‘ Turkon-og‘o, SHerbiyk-og‘o bulgan.Hofizi Abru farzandlarninig yosh jihatidan qaysi biri katta yoki kichikligi haqida aniq yozmagan, lekin Turkiy xalqlarorsida katta farzand hukumatga chiqishi va Temur Shahrisabz hokimi bulganini hisobga olsak Temur farzandlar orasida kattasi bulgan deyish mumkin Abru uz asarida sohibqironning avlodlari haqida malumot

berib, Temurni ilm ahliga juda katta etibor berib, tarix ansob ilmida, Turkiy, Arab va Ajam halqlari haqida keng malumotga ega ekanligini takidlab utgan. Temurni Amir Qozog‘on huzuriga uning otasi olib borgan.

METODOLOGIYA

Ushbu voqea 1355-yilda sodir bulgan, chunki aAmir Qozog‘on 1355-yilda Temurga uzining nabirasi O‘ljay Turkon og‘ani nikohlab bergan. O‘ljoy Turkon og‘o Amir Musalloning qizi Amir Husayn singlisi edi. Amir Qozog‘on Temurning aql zakovatiga qoyil qolib uzining nabirasini ikkinchi xotin qilib nikohlab bergan. Undan oldin 1355-yil bahorida Amir Tarag‘`ay Amir Temurni Jaku Barlosning qiziga uylantirib quygan edi. Bir yil utib 20yoshli Amir Temur ikki o‘g‘il kuradi. 1356-yil yozida Oljoy Turkon og‘a Jahongir Mirzoni kuzida esa Jaku Barlosning qizi Mirzo Umarshayxni dunyoga keltiradi. Manbalarda keltirilishicha Amir Temurning feli og‘ir bosiq bulib, jizzakilikva jahldorlik unga xos emas edi. Sohibqiron Amir Temur ning ichkilikka ruju quymagan edi. Temurning shunday xislatlari maslakdoshlari orasida uning o‘bro‘sini ko‘targan.

Hofizi Abruning yozishicha Abbos Bahodir, Jahonshohbek, QimoriInoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushih Qarqara, Amir Temurning yaqin dustlari edi. Amir Qozog‘onga uzining kiyovi Qutluq Temur fitna uyushtirib uni uldiradi. Natijada Movarounnahrda Amirlarning uzaro kurashi vatarqoqlik kuchaygan. Ushbu dvrda Amir Temur og‘ir sinovlarni boshdan utkazganini kurish mumkin. Amir Qozog‘on uldirilgach Amirlik taxtiga uning ikkinchi o‘g‘li Abdulloh utirgan. Abdulloh davrida ham siyosiy tarqoqlik va boshboshdoqlik nihoyatda kuchayganidan Abdulloh mamlakatni boshqara olmay qoldi va bir yil utgach Amir Abdulloh ham uldiriladi. Hofizi abruning yozishicha Movarounnahrda 1358-1359-yillar Movarounnahr bek va amirlari urtasida nizo va kurashlarda utdi. Kesh viloyati Hoji Barlosga, Xujand viloyati Boyazid Jaloyirda, bazi viloyatlar Husayn ibn Musallo ibn Qozog‘on, Uljay Bug‘a Sulduz Balxda, SHiburg‘on esa Muhammad Hoji Apardiy hukumronlik qilardiva uzlarini mustaqil deb elon qilish davosini qilishardi. Ushbu notinchlikdan foydalanib, Chig‘atoy ulusining sharqiy qismi xoni Tug‘luq Temur ulusning g‘arbiy qismini ham uz mulkiga qushib olish maqsadida qushin tortdi. Tug‘luq Temur 1360—yilda Sirdaryo va Toshkent oralig‘idagi CHanoq Buloq mavzeyida to‘xtadi. Bu yerda uz lashkarboshilari bilan kengash utkazib, yorliq bilan kerant urug‘idan Ulug‘ Temurni, arkanut urug‘idan Hojibekni va qangli urug‘idan Bekkichikni Keshga yuboradi. Voqeadan habar topgan Hoji Barlos butun urug‘I bilan Xurosonga ketishga qaror qiladiAnir Temur Hoji Barlosni Amudaryogacha kuzatib borib, siz Xurisonga borsangiz men Kishda qolib, bu yerdagi beklar bilan sulh tuzib xon xizmatiga kiraman, zero viloyat hokimsiz qolib el xalq dushman zulmidan jabr chekmasin dedi. . Xon bilan 1360-yil yanvarida bivosita muloqotga kirishi Amir Temurni yuksak darajada harbiy va siyosiy arbob bulib yetishganini kursatadi. Sohibqiron Xon huzuriga kelib unga xizmat qilishga tayyor ekanliginni bildiradi va Xon yorlig‘I bilan Kesh viloyatining dorug‘asi etib tayinlanadi. Ushbu voqeadan sung Amir Temur Keshga qaytadi. Teg‘luq Temur Mug‘ulistonga qaytib ketadi. Ushbu noilojlikdan kuchlar teng emasligidan , Amir Temurning, Tug‘luq Temur bilan olib borgan muzogarasi Kesh viloyatini Mug‘ullar istilosidan saqlab qoldi deyish mumkin.Biroz vaqt utgach ichki nizolar yana avj oldi. Beklardan Bayon Sulduz, Xizir Yasavuriy, Boyazid Jaloyir va Xurosondan qaytib kelgan Hoji Barlos nizo ko‘taradilar. Ulardan yosh jihatidan ancha

kichkina bulgan Amir Temurning dirug‘alik qilishiga norozi buladilar. Bu nizolarda dorug‘a sifatida Amir Temur ham qatnashishga majbur buladi. Voqelardan Xabar topgan Tug‘luq TemurXon 1361-yil martida Movvarounnahrga ikkinchi marta kelisshga majbur buldi. U Xujand yaqinidagi chulda tuxtaydi. Movarounnahr beklaridan Boyazid jaloyir va Bayon Sulduzni qatl etti. Xurosonga qochgan Hoji Barlos usha yerda uldiriladi. Sohibbqironning otasiga yaqin shax bulgan, karlikot urug‘idan Hamidbik Xonnimg yaqin kishilaridanedi. U Amir Temurga yordam berish maqsadida Temurni Xon huziriga chaqirib Xon bilan tanishtirdi. Yilning bahori va yozini Movarounnahrda utkazgan Xon Temurning qaynog‘asi Amir Husayn bilan jang olib bordi. Husaynni yingib Hindukusht tog‘igacha taqib etib borgach, Xon yana Mug‘ilistonga qaytib ketti. Mug‘ilistonga qaytishidan oldin Xon uz yorlig‘iga ko‘ra IlyosXo‘jani Movarounnahr podshisi etib tayinlagan. IlyosXo‘ja mamlakat boshqaruvini Amir Temurga beradi. Hofizi Abruning ushbu fikrlariga tayansak 1360-yillaridayoq, Amir Temur Movarounnahrning eng yirik shaxslaridan bulib yetishganini kursatadi. Bekkichik Amir Temurga nisbatan ig‘vo tarqatadi. Ilyosxo‘ja va Bekkichik bilan kelisha olmagan sohibqironga mamlakatda qolish hafli bulib qoldi. Shu sababdan Sohibqiron mamlakatni tark etishga majbur buldi. Sohibqiron 1361-yilda dastlab qaynog‘asi Amir Husaynni Xiva yaqinidagi chuldan topdi va ular Xiva dorug‘asi Tukalning huzuriga borishga kelishishadi, lekin Ilyos Xoja Tukalga Amir Temur va Husaynni tutib qatl etishga buyirganini eshitgach ular Janubga yul oladilar. Tukal 1000 kishilik askari bilan ularni taqib etib yetib oladi. Ushbu vaqtda Amir Temur va Amir Husayn safdoshlari va ayollari bilan 60 kishi bulganini, Tukal bilan jangga kirib qirg‘inbarot jangdan sung Temur va Husaynda 7 kishi, Tukal qushinida esa 50 kisshi qolib Tukal jangni tuxtatib chekinganini Hofizi Abru uz asarida yozadi. Ushbu fikrlarga tayansak Temur va Husayn mohirlik bilan jang qilganini aytish mumkin. Ular Tukalni yenggan bulishsada Mohonda Turkman Alibek Joniqurboniy ibn Arg‘unshoh qulida 62 kun asirga tushib qoladilar. Asirlikdan ozod bulgach, hozirgi Afg‘onistonning janubidagi Hilmand mavzsida uchrashishga kelishib bir-birlaridan ajraladilar. Temur Kesh tomon yul olib, hozirgi G‘uzorda 2 oy Samarqanddagi onasing uyida esa 48 kun turadi. Ilyos Xoja Temurni butun Movarounnahrdan izlayotganini bilgach bu yerda ham uzoq vaqt turish havfli deb hisoblaydi va Hilmandga qaynog‘asi Husaynning huziriga ketadi. Temur qaynog‘asi bilan 1000 kishilik qo‘shin to‘plagach ulardan Seiston dorug‘asi harbiy yordam so‘raydi. Amir Temur va Husayn Mekroniylarga qarshi Seiston tomonida turib jang qiladi. Ushbu jangda Temurning o‘ng ayog‘I Mamaqtu otgan uqdan yaralanadi. 1362-yil Temur Xuroson janubidagi Arsaf cho‘lida jarohatini davolaydi. Jarohati tuzaladi, ammo Temurning o‘ng ayog‘I oqsoq bulib qoladi. Sohibqiron 1362-yilda oqsoqlanib qolganini hisobga olsak, ushbu holat uning siyosiy faoliyati va janglarda mohirona jang qilgani Temurni kuchli iroda va bardoshli shaxs bulib yetishganligini ko‘satadi. Amir Husayn va Sohibqiron 2yil davomida Ilyosxo‘ja boshchiligidagi Jeta lashkarlariga qarshi jang olib boradilar. 1364-yil Jeta qo‘shinini Movarounnahrdan haydab chiqaradilar. Ko‘p vaxt o‘gmay 1365-yilda dushman qushin tortib elayotgani haqida habar tarqaladi.

NATIJALAR

Hofizi Abruning yozishicha Amir Temur va Husayn Toshkent bilan Chinos urtasidagi CHirchiq daryosi bo‘yida qo‘shin to‘playdilar. Jeta qushini Konibodom tomonidan

yaqinlashib kelardi. So‘ng ikki taraf saf tortib turdi. CHig‘atoylar qo‘shinining o‘ng qanotida Husaynbek vas ul qanotida Temurbek turardilar. Jang hijriy 766-yil ramazon oyining boshida, milodiy 1365-yil 22-may kuni bo‘lgan. Jangda dastlab Chig‘atoylarning qo‘li baland keladi. Halol jangda yengaolmasligini tusshingan Mug‘illar hila ishlatadilar. Jang paytida kuchli yomg‘ir yog‘ib, ikkala tomon ham kuchli yomg‘ir ostida qoladilar. Yomg‘ir nihoyatda ko‘p yog‘ganligidan jang maydoni botqoqga aylanib qoldi. Hatto yerning loy bulib ketganligidan otlar ham harakatlanishga qiynalardi. Og‘ir tabiy sharoitga qaramay jang shiddat bilan davom etadi. Amir Temur sul qanotdan dushmanning o‘ngqanotiga qattiq zarba berib Ilyosxujani chekinishga majbur qiladi. Shunga qaramay dushmanning sul qanoti SHamsiddinbek boshciligida chog‘atoylarning Amir Husay rahbarligidagi o‘ng qanotiga zarba beradi. Temurbek o‘Z qo‘shinining o‘ng qanoti chekinayotganini ko‘rib, o‘z navkarini Amir Husayn huziriga yuborib, qushinlarini qalb vas ul qanotga yaqinlashtirishni suraydi. Amir Husayn rozi bulmagach birinchi marotaba Temurbek va Husaynbek o‘rtasida nizo kelib chiqadi. Bundan foydalanib dushman chig‘atoylarning qushinini ikkiga ajratib yuboradi va jangda g‘alaba qozonadi. Loy jangida Amir Temur va Husayn uyushib harakat qilmaganligi sababli birinchi marotaba mag‘lub buladilar. USbu jang tarixga Loy Jangi nomi bilan kirgan. Jangdan sung Amir husayn uzining Mulki hisoblangan Soli Saroyida barcha yaqinlarini tuplaydi. Bundan sung u Amudaryoni kechibb utib Kobul yaqinidagi SHabartu qalasiga kelib tuxtaydi. Husayn agarda Mug‘ullar uni taqib etib keladigan bulsa Hindistonga qochib utishni maqsad qilgan edi.

Husayn Amir Temurga ham Amudaryoni kechib utish taklifini beradi, ammo Temur yana lashkar tuplab Mug‘ullarga qarshi jang olib borishini aytib, unga rad javobini beradiTemurning ushbu qaroridan kelib chiqib aytish mumkin, ki unda vatanparvarlik tuyg‘usi ham yuksak darajada shakllangan. Loy jangidan sung Mug‘illarda jasorat kuchayib, ular Samarqand shahriga yurish qiladilar. Bu vaqtda shaharni himoya qiluvchi bironta ham harbiy istehkom yuq edi. SHu boisdan shahar himoyasiga oddiy halq chiqadi. Ular Sarbadorlar nomini olib Sarbadorlarga Mavlonozoda Samarqandiy, Mavlono Xurdak Buxoriy, Abu Bakr Kalaviylar rahbarlik qiladilar. Sarbadorlar shaharning har bir kuchasini kucha bandlar bilan tusib Mug‘illarga qattiq qqarshilik ko‘satadilar. Jang uzoq vaqt davom etadi. Mug‘illar ham shaharni olaolmay holdan toygan edilar. Ushbu vaqtda Mug‘illar qushinining otlari orasida kutilmaganda vabo kasali tarqalib otlar qirilib ketdi.Mug‘il askarlariga to‘rt kishiga 1 ot tug‘ri kelar edi.Matijada Mug‘illar shaharni tashlab chiqishga majbur buldilar.Mug‘illar shaharni tark etgach shaharda parokandalik kuchayib, Sarbadorlar shaharni boshqara olmasliklari malim bulib qoldi.Bundan habar topgan Amir Temur lashkar tuplab Samarqandga yul oldi va bundan Amir Husaynni ham ogohlantirdi.Ular 1366-yilniing bahorida Samarqandga yetib keladilar va taftish o‘kazadilar. Sarbadorlar harakati rahnamolari aybdor deb topilib, Xurdak Buxoriy va Abu Bakr Kalaviylar Konigil mavzesida dorga osib qatl qilinadi. Mavlonozoda Samarqandiyni esa Amir Temur himoyasiga olib qutqarib qoladi.

MUNOZARA

Amir Husayn hokim sifatida Sohibqironning lashkarboshilari Jakubek, Sayfuddinbek, Oqbug‘a, Elchi Bahodir, Davlatshoh Baxshilarga Loy jangining mag‘lubiyatida aybdor deb hisoblab katta miqdorda jarima solidi. Ular katta miqdordagi

jarimani tulashga qodir emasdi. Shu boisdan kumak surab Amir Temurga murojaat qiladilar. Sohibqiron barcha mulkini yig‘ib Amir Husaynga topshirdi. Topshirilgan mol ichida Temur o‘z xotini Husaynning singlisi O‘ljoy Turkonga mahrlikka bergan ikki sirg‘asi ham bor edi. Amir Husayn o‘z singlisining mahrlik mulkini ko‘rib ham olishi Amir Temur bilan dushman kayfiyati paydo bulishiga sabab bo‘ldi. 1366-yilning oxirida Husaynning singlisi O‘ljoy Turkon oqaning vafot etishi ikki amir o‘rtasidagi qarindoshlik rishtasining tugashiga sabab buldi. Sohibqironning O‘joy Turkon oqadan ikki o‘g‘lidan tashqari Sultonbaxt begim nomli bir qizi ham bore di. Ikki Amirlar ajralgach ularning tarafdorlari beklar va askarlar ham ikkiga ajraldilar. Janubliklar orasida Husaynning tarafdorlari ko‘p edi. Shimolliklar orasidagi Yasavuriylar urug‘I Husaynga xayrixoh ekanidan habar topgan Temurning beklari Yasavuriylarni hibsga olishni taklif qiladilar, ammo sohibqiron o‘z beklariga rad javobini berib, yaxshilik ustida bunyod qilaingan mamlakatning kelajagi porloq buladi deb aytadi.

Temurning ushbu fikriga tayansak, u adolat tarafdori bulganini ko‘rish mumkin. Ushbu holat Sohibqiron va Husayn urtasida nizo kuchayishiga olib keldi. 1367-yildan 1370-yil orasida ular bir necha marotaba tuqnashadilar va ikki bor yarashadilar. Ular urtasidagi asosiy tuqnashuv 1370-yil aprelida Balx yaqinida yuz berdi. Tuqnashuvda Amir Husayn yengilgach Temur huzuriga o‘z o‘g‘lini yuborib qonidan kechishini va makkaga haj ziyoratiga yuborishga ruxsat suraydi. Amir Temur unga rozi buladi, biroq Temurning beklari Husaynning ayyor va makkor ekanligini yaxshi bilishardi shu boisdan bunga rozi bulmaydilar, chunki Husaynga ozodlik berilsa keyinchalik u yana qushin to‘plab fitna ko‘tarib muammo keltirishi turgan gap edi. Shu paytda Kayxusrav Xuttaloniy amir Husayn tomonidan o‘ldirilgan ukase Kaykubodning xunini talab qiladi. Amir Temur Husayn bilan o‘tgan davrlarini esga olib chuqur istiropga tushadi va ortga o‘grilib oladi. Shu payt Uljaytu Apardiy Kayxusrav bilan Muayyidbekka ishora qiladi va ular tashqariga chiqib Husaynni qatl ettilar. Amirlar hozir bo‘lgan Husaynning o‘g‘illarini ham qatl ettilar.

Husaynbek ibn Musallo ibn Amir Qazag‘on Balxdagi Xoja Akosha qabristoniga dafn qilinadi. Undan sung Sohibqironning Amirlari Husaynning ayollari va to‘plagan mol-mulkini Amir Temur huziriga keltiradilar. Sohibqiron Qazonxon Sultonxonning qizi Saroymulkxonimni, Xizir Yasavuriyning qizi Islom oqani, Bayon Sulduzning qizi Ulus oqani va Tag‘ay Turkon xotunni Aamir Temur o‘z haramiga oladi. Shu boisdan Temurga kuragon yani kuyov unvoni beriladi. Husaynning boshqa ayollari va mol-mulkini beklarga taqsimlab beradi. 1370-yil bahorida CHig‘atoy ulisining barcha beklari top`lanib qurultoy chaqiradilar unda Amir Temur Kuragonni hukmdir deb elon qiladilar. Bu voqea hijriy 771-yilning 12-ramazonida 34 yoshga tulganining ertasiga yuz bergan.

XULOSA

Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi XIV asrning murakkab siyosiy manzarasi, markazlashmagan hukumat tuzilmalari va amirlar o‘rtasidagi o‘zaro raqobat sharoitida yuzaga kelgan edi. U yoshlik yillaridanoq harbiy va siyosiy tayyorgarlik ko‘rgan, jismonan chiniqqan, ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllangan. Temur dastlab Chig‘atoy amirlariga xizmat qilib, keyinchalik o‘z mustaqil kuchiga tayanib Movarounnahrning siyosiy hayotiga faol aralasha boshlaydi. U o‘z davrining siyosiy beqarorligini chuqur anglab, ittifoqlar tuzish, raqiblar bilan strategik muzokaralar

olib borish, vaqti kelganda harbiy kuch ishlatish kabi harakatlar bilan o‘z mavqeini mustahkamlab bordi.

Temurning siyosiy yetakchilik salohiyati, vatanparvarlik hissi, adolatparvarligi, og‘ir sharoitlarda bardoshlilik ko‘rsatishi uni katta tarixiy shaxs sifatida shakllantirdi. Aynan shu xususiyatlar tufayli u markazlashgan davlat tuzishga erishdi va keyinchalik jahon tarixida muhim o‘rin egalladi. Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi O‘rta Osiyo tarixining burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. XIV asr o‘rtalarida Movarounnahrda mavjud bo‘lgan siyosiy beqarorlik, amirlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, va hokimiyat uchun bo‘lgan kurashlar natijasida xalq hayoti izdan chiqdi, markazlashgan boshqaruv tizimi parokanda bo‘ldi. Aynan ana shunday murakkab va notinch davrda Amir Temur o‘zining siyosiy sahnadagi faoliyatini boshladi. Uning siyosiy maydonga chiqishi tasodifiy bo‘lmay, balki tarixiy ehtiyoj, shaxsiy salohiyat va ijtimoiy zaruriyat mahsuli edi.

Temurning dastlabki siyosiy harakatlari — Hoji Barlos va Amir Qozog‘on bilan aloqalari, keyinchalik Amir Husayn bilan ittifoqi, so‘ng bu ittifoqdan ajralib, mustaqil kuchga aylanishi – barchasi strategik yondashuv va siyosiy tafakkurning ifodasidir. U harbiy taktikalar, diplomatik munosabatlar, do‘st va dushmanni ajrata olish qobiliyati orqali asta-sekin o‘z kuchini mustahkamlab bordi. Ayniqsa, uning har qanday og‘ir sharoitda sabr-toqat, iroda va jasorat bilan harakat qilishi, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorlik va chuqur o‘y yuritishi uni kuchli davlat arbobiga aylantirdi. Temurning siyosiy yetukligi shundaki, u birinchi navbatda Movarounnahrda tartib va barqarorlikni tiklashga harakat qildi. Turli urug‘lar va amirliklar o‘rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo‘lgan bir davrda, u yagona markazlashgan davlatni barpo etish g‘oyasini ilgari surdi. Uning adolatparvarligi, vatanparvarligi, mehnatkash xalqga e’tibori, ilm-fanga bo‘lgan hurmati uni nafaqat kuchli sarkarda, balki dono siyosatchi sifatida tarixda qoldirdi. Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi nafaqat o‘z davrining ehtiyojlariga javob bergan, balki kelajak avlodlar uchun mustahkam tarixiy asos yaratgan harakat sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, nashr sanasi ko‘rsatilmagan.
2. Hofizi Abru. Tarixiy asarlaridan parcha. – Manbaviy matnlar asosida.
3. Jo‘rayev, R. (2001). Amir Temur va temuriylar davlati tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston.
4. Karimov, I. A. (1996). Amir Temur - buyuk davlat arbobi va sarkarda. – Toshkent: O‘zbekiston.
5. Valixo‘jayev, B. (1998). Temuriylar davrida siyosiy kurashlar va ularning natijalari. – Toshkent: Fan.
6. Sultonov, M. (2015). Temur va Temuriylar davri tarixi. – Samarqand: Registon.
7. Hofizi Abru. Tarixiy asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, nashr sanasi ko‘rsatilmagan.
8. Jo‘rayev, R. (2001). Amir Temur va temuriylar davlati tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
9. Karimov, I. A. (1996). Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda. – Toshkent: O‘zbekiston.
10. Valixo‘jayev, B. (1998). Temuriylar davrida siyosiy kurashlar va ularning natijalari. – Toshkent: Fan.
11. Sultonov, M. (2015). Temur va Temuriylar davri tarixi. – Samarqand: Registon nashriyoti.
12. Yo‘ldoshev, A. (2003). O‘zbekiston tarixi: O‘rta asrlar davri. – Toshkent: O‘qituvchi.
13. Qayumov, A. (1992). Amir Temur siymosi tarixiy manbalarda. – Toshkent: Fan.